

## AUDIT INVESTIGATION OF JOINT STOCK COMPANIES

Tulovov Erkinjon Tolqin oglu  
Master of Tashkent State University  
erkintulovov@gmail.com

### ABSTARCT

One of the main conditions for any joint-stock company to operate in the market is strict adherence to accounting and financial discipline. Joint-stock companies "must undergo an annual audit in accordance with Article 10 of the Law of the Republic of Uzbekistan on Auditing." All settlements for the sale of goods and services must be completed within the timeframe set by the agreement approved by both parties. The breach of obligations has led to non-fulfillment of production plans by businesses, as well as an increase in accounts payable and the deterioration of their financial condition.

In the course of the activities of joint-stock companies, statutory accounts payable for incomplete accounts are legally incurred, and include:

- to‘lov uchun taqdim qilingan schyotlar bo‘yicha belgilangan haq to‘lash muddatlari doirasida mol etkazib beruvchilar va pudrachilar oldidagi qarzdorlik (6010)
- soliqlar va majburiy ajratmalar bo‘yicha muddati o‘zaytirilgan majburiyatlar (6240)
- soliqlar bo‘yicha davlat oldidagi qarzlar (6400)
- mehnatga haq to‘lash bo‘yicha ishchi va xodimlar oldidagi qarzdorlik (6710) va boshqalar

Kreditorlik qarzi audit intizom hamda belgilangan hisob-kitob tartibi buzilishi munosabati bilan ham paydo bo‘lishi mumkin. Masalan, muddatida to‘lanmagan to‘lov xujjatlari bo‘yicha va amalga oshirilmagan mahsulot etkazib berishlar bo‘yicha tovar etkazib beruvchilarga qarzlar, olinagn moddiy boyliklar qiymati to‘langan schyotlar summasidan ortiq bo‘lganida vujudga keladigan ularni yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlar va hokazo.

Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarini balans passiv qismining “majburiyatlar” 2 bo‘limida joylashgan.

Kreditorlik qarzlarini o‘rganish va ularni auditdan o‘tkazish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

- kreditorlik qarzlarining umumiyligi
- kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi
- chetdan jalb qilingan mablag‘larning koeffitsienti
- o‘z mablag‘larining umumiyligi qaramlik koeffitsienti
- muddati o‘tgan kreditorlik qarzlarini koeffitsienti

Kreditorlik qarzlarining umumiyligi bo‘yicha ma’lumotlar 1 shakl “Buxgalteriya balansi” va 2a shakl “Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma’lumot” dan olinadi. Kreditorlik qarzlarini summasiga qarab, ularning ma’lum davrlar ichida ko‘payishi yoki kamayishi aniqlanadi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, xar qanday kreditorlik qarzlarining ko‘payishi ham korxona ahvolining yomonlashayotganligidan dalolat bermaydi. Agar kreditorlik qarzlarining o‘sish su’rati mahsulot sotish hajmidan yuqori bo‘lsa, bu xol ushbu korxona to‘lovga layoqatsizligiga, natijada mol etkazib beruvchilar bilan o‘z vaqtida hisob kitob qila olmasligidan dalolat beradi.

Kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi har bir turdag‘i qarzlarni ularni umumiyligi summasida qancha ulushni tashkil etish bilan ifodalanadi. Bu ulush korxona to‘lov imkoniyati darajasiga

bog'liq bo'ladi. Audit jarayonida, muddati o'tgan kreditorlik qazrlariga alohida e'tibor berish zarur. Ularning o'sishi korxona faoliyati yomonlashayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq (16-modda) yillik "hisobot"ning qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlari buxgalteriya balansi passiv qismining 2 bo'limida aks ettiriladi. O'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha yillik hisobot ma'lumotlarini tayyorlash jarayoniga quyidagi talablarni qo'yish lozim deb hisoblaymiz:

- hisobotlarni tayyorlash jarayonida buxgalteriya hisob qoidalari va boshqa me'yoriy xujjatlar talablariga rioya etish;
- qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq va aniq ko'rsatib berilishi lozim;
- barcha hisob kitoblar o'z vaqtida va xolisona bshlishi lozim;

Qisqa muddatli majburiyatlar auditini yillik buxgalteriyaya balansi ma'lumotlariga ko'ra ularning davr boshiga nisban o'zgarishini o'rganishdan boshlash kerak. U kreditorlarga hisobot yilda korxonada qisqa muddatli majburiyatlar o'zgarishini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Audit nuqtai nazaridan, hisobotni tayyorlashda muddati o'tgan kreditorlik qarzlarini turlari bo'yicha yoritilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Hisobotlarda bunday ma'lumotlarni mavjud bo'lishi qisqa muddatli majburiyatlar auditini chuqur va asosli tarzda amalga oshirish, buning natijasida esa ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Majburiyatlarni tarkibiy qismlarining ulushlarini o'zgarishi bo'yicha auditini amalga oshirish vositasida aksiyadorlik jamiyatlarida kelajakda majburiyatlar summasining o'sishi yoki kamayishini oldindan ko'ra bilish hamda qisqa muddatli majburiyatlarni nisbiy baholay olish ham mumkin bo'ladi.

Qisqa muddatli majburiyatlarni nisbiy baholash uchun ularni quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- pul mablag'lari va debtorlik qarzlarini qisqa muddatli qarzlar bilan taqqoslash
- joriy majburiyatlarni korxonaning o'z mablag'lari bilan taqqoslash
- sotishdan olingan tushum (tovar, ish va xizmat)larni qisqa muddatli qarzlar bilan taqqoslash.

Audit buxgalteriya hisobi, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari asosida o'tkazilib, aksiyadorlik jamiyatlari ish faoliyatining 1 yildan ortiq ma'lumotlari asosida baholashni amalga oshiradi. Audit natijalariga strategik boshqaruv muammolarini hal etishda, shuningdek, texnik iqtisodiy rejalashtirishni ilmiy asoslashda muhim dastak sifatida qaraladi. Uzoq muddatli majburiyatlar auditining kamchiligi audit asosida aniqlangan imkoniyatlarni uzoq davrda ishlab chiqarish samaradorligini o'stirishda safarbar etib bo'lmashigidir. Shu sababli audit natijalaridan keyingi faoliyatda foydalanish mumkin. Bu esa, albatta, operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki axborotlar kechikkan xolda olinadi. Buni bevosita rasmiy axborotlarni tuzish va taqdim etish hamda analistik qayta ishslash davrini tezlashtirish orqaligini hal etish mumkin.

Uzoq muddatli majburiyatlar auditi boshqaruvning barcha bo'limlarida o'tkazilishi, aksiyadorlik jamiyatlarining to'liq audit sifatida o'zining keng qamrovligi, istiqbolli audit sifati uchun asos bo'lib xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

Xalqaro amaliyotda xalqaro audit standartlariga ko'ra "uzoq muddatli majburiyatlar o'z ichiga 1 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga oladi". Rivojlangan mamlakatlarda uzoq muddatli majburiyatlarni 3 turga bo'lib o'rganiladi. Ular quyidagilar:

- bir yildan ortiq muddatga olingan bank ssudalari;
- bir yildan ortiq muddatga kompaniya tomonidan berilgan obligatsiyalar;
- bir yildan ortiq muddatga olingan ijara majburiyatları;

O'zbekiston Respublikasining "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning konseptual asosi" nomli №0 sonli buxgalteriya hisobining milliy standartiga muvofiq "Ilgari sodir bo'lgan muomalalar yoki voqealarning natijasida sub'ektning yuzaga kelgan majburiyatlarni aniqlaydi ". Ushbu majburiyatlar asosan uzoq muddatli aktivlarni qurish va sotib olish muomalalarining natijasidir. Uzoq muddatli majburiyatlarni xaqiqiy balans sanasidan yoki uning faoliyati qismidan bir yildan oshiq muddatga to'lanishi mumkin bo'lgan qarzlardir. Tahlil jarayonida biz uzoq muddatli majburiyatlarning quyidagi turlarini aniqlaymiz:

- mol etkazib beruvchilar va pudrachilar oldidagi qarzlarning uzoq muddatli qismi;
- muddati uzaytirilgan uzoq muddatli qarzlar;
- bo'linmalarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlar;
- xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklarning uzoq muddatli qismi;
- uzoq muddatli bank kreditlari;
- turli kreditorlarning uzoq muddatli qazrlari;

Uzoq muddatli majburiyatlar, joriy majburiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ularning ikkala turi bo'yicha yuz berayotgan xo'jalik muomalalarini tegishli tarzda hisobga olib borish buxgalteriya hisobining mailliy standartlari talablari bo'lib hisoblanadi. Lekin amaliyotda ko'pchilik holatlarda ushbu talablarning buzilish holatlari yuz bermoqda. Ya'ni ayrim korxona hisobchilari majburiyatlarni muddatidan qa'tiy nazar yoki "joriy majburiyatlar" tarkibida yoki barcha majburiyatlarni "uzoq muddatli majburiyatlar" tarkibida hisobga olmoqdalar.

Natijada hisobotning tashqi foydalanuvchilari korxonaning holati to'g'risida noto'g'ri axborotga ega bo'lmoqdalar. Shuning uchun biz, ishlab chiqarish korxonalarida uzoq muddatli majburiyatlar tahlilini keng qamrovida ko'rib chiqishni lozim deb hisoblaymiz.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning kreditga layoqatliligi deganda uni kredit bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olishi tushiniladi. Korxonani kreditga layoqatliligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- korxonaning obro'si va nufuzi;
- korxona rahbarining huquq doirasida ish ko'rishi joriy etilganligi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatdoshligi va boshqalar;

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida bank ushbu berilgan kredit hisobidan korxonada vujudga keladigan qo'shimcha daromadni hisobga olib unga bu mablag'ni ajratish yoki ajratmaslik masalasini xal etadi.

Buning uchun bank kredit berishdan oldin quyidagi holatlarni ko'rib chiqadi:

- kredit resurslardan foydalanish maqsadililigi;
- korxona balansining likvidliligi
- kreditni qondirilishi;

Kreditni ta'minlanishida bank qonun va qoidalariga asosan qarzlarni kredit oluvchining avtivlaridan foizlar ko'rinishida olinadi.

Xulosa qilib aytganda aksiyadorlik jamiyatlarida xisob kitoblarni to'g'ri olib borish qolaversa sifatli auditorlik tekshiruvini tashkil etishni ta'minlashimiz kerak. Albatta, bu holat majburiyatlarni rejalashtirish, prognozlash va albatta ularga nisbatan barqaror, ham davlat, ham aksiyadorlik jamiyatlari manfaatlariga javob beradigan tekshiruv usullarini tadbiq etishga o'z hissasini qo'shadi deyishimiz mumkin.